**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**"Tasdiqlayman"**
Jizzax davlat pedagogika universiteti
rektori prof. Sh.S.Sharipov

________________

2022 yil "___" ________

# IQTISODIY TA'LIMOTLAR TARIXI
FANINING O`QUV DASTURI

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 100000 | - | Ta'lim |
| **Ta'lim sohasi:** | 110000 | - | Ta'lim |
| **Ta'lim yo'nalishi:** | 60112500 | - | Maktab menejmenti |

**Jizzax – 2022**

Yangi davr hususiyatlari. Quldorlik jamiyatining emirilishi davrida arab davlatlaridagi iqtisodiy g'oyalar. Islomdagi iqtisodiy qarashlar. Ibn Xoldunning "Kitob-ul-ibar" asaridagi iqtisodiy g'oyalar. Bozor munosabatlari to'g'risidagi fikrlar.

G'arbiy Yevropadagi iqtisodiy g'oyalarning asosiy mohiyati. Krepostnoylik xususiyati, natural va tovar ishlab ishlab chiqarish hojalik to'g'risidagi g'oyalar. Foma Akvinskiy (Italiya) qarashlari. "Adolatli baho" masalasi. Foiz va rentaga munosabat. Qadimgi Rus davlati iqtisodiy g'oyalari. Ermolay-Erazm qarashlari, Boylik asosi, sudxorlikka munosabat. "Domostroy" asarida bozorga, xojalik yuritish, boshqarish, savdoga munosabat. O'rta asr utopiyalari. Tomas Mor ("Utopiya"), Tommazo Komponella ("Oftob shahri") asarlardagi hayoliy sosialistik g'oyalar. Ularning ijobiy tomoni va xatolari.

**2- mavzu. O'rta Osiyodagi temuriylar davrigacha bo'lgan iqtisodiy g'oyalar. Amir Temur va temuriylar davridagi iqtisodiy g'oyalar va iqtisodiy siyosat. ( 2 soat)**

Marg'inoniyning «Hidoya» asari, undagi iqtisodiy fikrlar, iqtisodiy qonunchilik, zakot, chorva mollari, qo'y-qo'zi, qoramollardan olinadigan zakot mikdori, Forobiy asarlarida "ehtiyoj", mexnat, mexnat taqsimoti, inson omili masalalarining yoritilishi. Beruniyning asarlarida kishilik ehtiyojlarining paydo bo'lishi va uni qondirish asoslari, mexnat va xunarga munosabatlari. Ibn Sino asarlarida ehtiyoj, mexnat taqsimoti, mehnat qurollari ahamiyati. Fozil davlat tug'risidagi g'oya. Insonlarning manaviyati va iqtisodiyot O'rtasidagi munosabat. Savobli ish. Nizomulmulkning "Siyosatnoma" asaridagi iqtisodiy fikrlar. Xazina (budjet), uni to'lash, asrash hisob-kitob masalalari. Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig" asari, unda raiyatning xukmdorga talablari: mulk daxlsizligi, pulning qadr-qiymati, savdo yo'llarining bexatarligi to'g'risidagi fikrlar. Merkantilizm va fiziokratizm g'oyalari. Yusuf Xos Xojib va Rabguziy g'oyalarining hozirgi davrdagi ahamiyati.

Amir Temurning iqtisodiy siyosati. "Temur XIV asr oxiridagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol. Amir Temurning iqtisodiy siyosati. "Temur tuzuklari", undagi iqtisodiy g'oyalar. Rivojlanish omillari: tinchlik-osoyishtalik; me'yoridagi soliqlar; davlat roli. Ulug'bekning iqtisodiy g'oyalari va iqtisodiy siyosat. Moliya-pul isloxotining axamiyati. Oltin va kumush tangalar o'rniga mis pullarining zarb qilinishi. «Fulusiya pullari». Alisher Navoiyning «Maxbub ul-qulub» va boshqa asarlaridagi iqtisodiy g'oyalar.

Dexqon, xunarmand mexnatining ulug'lanishi. Savdo, savdogar va tovlamachilarga munosabat. Olib-sotarlarning ijobiy va salbiy xizmatlari. Iqtisodiyot va davlat, hukmdorning roli.

Bobur va uning vorislari olib borgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning mohiyati. Boburning "Boburnoma", "Mubayyin" va boshka asarlaridagi iqtisodiy g'oyalar. Xumoyun va Akbarshox davridagi ijtimoiy-iqtisodiy fikrlar va siyosat, yangi yil hisobi, yagona uzunlik va og'irlik o'lchovlarining kiritilishi.

Temur va temuriylar davridagi iqtisodiy siyosatning hozirgi davr uchun ahamiyati.

**3- mavzu. Merkantilizm iqtisodiy ta'limotining mohiyati va ahamiyati. Angliya va Fransiyada klassik (mumtoz) maktabning shakllanishi ( 2 soat)**

Merkantilizm tushunchasi, uning mazmuni. Merkantilizm g'oyasi vujudga kelishining iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlari. Boylikning asosi - muomala sohasi. Ilk merkantilizm monetar tizimi. Tomas Mann (Angliya), Kolbertizm, Monkreten (Fransiya). Merkantilizm va proteksionizm siyosatining ayrim mamlakatlardagi ko'rinishi: Italiya merkantilizmi, Angliya-proteksionizmi, Fransiya-kolbertizmi, Germaniya-kameralistikasi. Pul topishning J.Lou (piramida) usuli. Merkantilizmning tarixiy taqdiri.

Klassik (mumtoz) iqtisodiy maktab vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari va umumiy xarakteristikasi. Angliyadagi shart-sharoit. Boylikning asosi - ishlab chiqarish sohasi, mehnat va yer, tabiat. Vilyam Petti asarlari, uning merkantilizmga munosabati. Petti uslubi (metodi), xususiyatlari qiymatning talqini. Iste'mol va almashuv qiymatiga munosabat, muomaladagi pul miqdorini aniklash. Ish haqi, yer rentasi, yer baxosi va foiz (prosentning ) tahlili. Per Buagilberning qiymat talqini, iste'mol va ayirboshlash qiymati, pulga munosabat. Fiziokrtatizm iqtisodiy ta'limotining mazmuni va ahamiyati.

| | |
|---|---|
| | ▪ iqtisodiy taraqqiyotga olib kelgan g'oyalar va iqtisodiy siyosatning mazmunini, iqtisodiy rivojlanishning yuksalish va sustlashuv sabablarini, ijobiy g'oyalarning iqtisodiy ta'limot yoki nazariyalar darajasiga erishmaganligini, iqtisodiy g'oyalari rivojidagi cheklanganlikni batafsil tahlil etishni ***bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma)***.<br>▪ Talabaturli davrdagi iqtisodiy g'oyalarni umumlashtirish va taxlil etish, ulardan ilmiy-amaliy xubsalar chiqarish va takliflar bera olish, asosiy iqtisodiy kategoriyalarga berilgan tariflarning usha davr va hozirgi zamon uchun ahamiyatini ochib berish, hozirgi zamonaviy iqtisodiy ta'limotlar va nazariyalari bilan solishtira olish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak (malaka)*** |
| **4.** | **VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>▪ interfaol keys-stadilar; (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>▪ guruhlarda ishlash;<br>▪ amaliymashg'ulotlar<br>▪ taqdimotlarni qilish;<br>▪ individual loyihalar;<br>▪ jamoa ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.<br>▪ ijodiyishlar yaratish |
| **5.** | **VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aksettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy nazorat, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.<br>Joriy nazorat. Joriy nazorat semestr davomida seminar mashg'ulotlariga ajratilgan soatlar (juftlik) dan kelib chiqib umumiy 30 ball bilan baholanadi.<br>Jami seminar mashg'ulotlari bo'yicha o'zlashtirish natijalari 100 ballik tizimda 30 ball bilan baholanadi.<br>Oraliq nazoratlar. Oraliq nazoratlar semestr davomida ma'ruza mashg'ulotlari o'quv soatidan kelib chiqqan holda 1 marta o'tkaziladi. Oraliq nazorat 100 ballik tizimda 20 ball bilan baholanadi. Oraliq nazorat ishi tarkibida mustaqil ta'lim topshirig'i kiradi.<br>Oraliq va joriy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalarga yakuniy nazorat topshirishga ruxsat beriladi.<br>Yakuniy nazorat<br>Yakuniy nazorat yozma yoki test shaklida o'tkaziladi. Talabaning yakuniy nazoratdag o'zlashtirishi 100 ballik tizimda 50 ball bilan baholanadi va yakuniy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalar fanni o'zlashtirgan hisoblanadi |
| **6.** | **IX. ASOSIY ADABIYOTLAR**<br>1. Iqtisodiy ta''limotlar tarixi: Darslik / Sh.H.Tashmatov, X.S.Asatullayev, Z.G.Allaberganov; – T.: "Iqtisod-Moliya", 2019.-352 b.<br>2. Razzoqov A., Toshmatov Sh., O'rmonov N. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. Ma'ruzalar matni . - T.: TDIU, 2007. - 256 bet.<br>3. Razzoqov A. O'rta Osiyo mutafakkirlarining iqtisodiy g'oyalari. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2009. - 270 bet.<br>4. Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik.- T.: Iqtisod-moliya, 2010. – 728 bet.<br>5. V. Avtonomova i dr.. Istoriya ekonomicheskix ucheniy: Uchebnoe posobie /Pod redaksii.– M.: INFRA-M, 2009. – 784 str.<br>**X. QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR**<br>1.Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik– har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yildaijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar / Sh.M. Mirziyoyev. |



| | |
|---|---|
| | marjinalistik g'oyalar (chegaraviy miqdorlar).<br>**6- mavzu. Germaniyadagi tarihiy maktab g'oyalarining o'ziga xos xususiyatlari. Marjinalizm ta'limoti va neoklassik iqtisodiy maktablar( 2 soat)**<br>Klassik maktabga tanqid. "Siyosiy iqtisod" o'rniga "iqtisodiy tarix" konsepsiyasi. F.Listning "Siyosiy iqtisodning milliy tizimi" asaridagi g'oyalar. Ijtimoiy (davlat, din, ahloq, ma'naviyat) omillarga e'tibor. Iqtisodiy rivojlanish bosqichlari. Rosher Knis, Gildebrand g'oyalari. Yangi tarihiy maktab. "Ijtimoiy iqtisodiyot konsepsiyasi".Zombard g'oyalarining reaksionligi, militarizm va shovinizmni qo'llash. Marksizm g'oyalarining tanqid qilinishi. Keyingi "institusionalizm" yo'nalishi shakllanishi uchun ahamiyati.<br>Marjinalizm. Iqtisodiy ta'limotlarda neoklassik yo'nalishning shakllanishi. Marjinalizmning umumiy ta'rifi. Rivojlanish bosqichlari.<br>Avstriya maktabi. K.Menger, E.Byom-Baverk, F.Vizer siyosiy iqtisod predmeti va metodlarining sub'ektiv-psixologik nuktai-nazardan talqin qilinishi. «Sub'ektiv» va «ob'ektiv» boyliklar nazariyasi, prosent (foiz) va foyda manbaining psixologik nuktai nazardan tushuntirib berilishi. Eng yuqori naf nazariyasining inglizcha varianti. U.Jevons, L.Valras.<br>Kembrij maktabi yoki yangi klassik (neoklassik) yo'nalish. A.Marshallning narxlar va daromadlar nazariyasi, neoklassik mikroiqtisodiyotning asosi, qisqa va uzoq davrlar, narxlar va ularni shakllantirish omillari to'g'risidagi ta'limot. «Elastiklik koeffisienti uslubi».<br>J.B.Klarkning iqtisodiy ta'limoti. Uning «Boylik falsafasi» va «Boylik taqsimoti» asarlaridagi iqtisodiy g'oyalar. «Ishlab chiqarish omilarining eng yuqori unumdorligi to'g'risidagi qonuni».<br>Iqtisodiy jarayonlarda vakt ahamiyatini hisobga olish. J.B.Klarkning iqtisodiy qarashlari. «Statika» va «dinamika»ning uslubiy (metodologik) konsepsiyasi. Ishlab chiqarish omillari eng yuqori unumdorligi nazariyasi.<br>Lozanna maktabi. Eng yuqori naf va eng yuqori unumdorlik nazariyasining matematik jihatdan tahlili. L.Valrasning umumiy iqtisodiy muvozanat modeli. Ekonometrika. V.Paretoning umumiy iqtisodiy muvozanat konsepsiyasi.<br><br>**III. AMALIY MASHG'ULOTLAR BUYICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR**<br>amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:<br>**1-mavzu. «Iqtisodiy ta'limotlar tarixi» fanining predmeti va o'rganish usuli. Qadimgi dunyo iqtisodiy g'oyalari (2-soat)**<br>**Reja:**<br>1. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi faniga kirish.<br>2. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi faning predmeti va vazifalari.<br>3. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi fanining o'rganish usullari.<br>4. Qadimgi Osiyo, qadimgi Yunoniston va qadimgi Rimdagi iqtisodiy ta'limotlar.<br>**2-mavzu. Feodal jamiyati va uning emirilishi davridagi iqtisodiy qarashlar (2-soat)**<br>**Reja:**<br>1. Arab mamlakatlaridagi dastlabki iqtisodiy g'oyalar.<br>2. Islomdagi iqtisodiy qarashlar (Ibn Xaldun).<br>3. G'arbiy Yevropadagi iqtisodiy g'oyalarga qisqacha xarakteristika.<br>4. O'rta asr utopiyalari.<br>**3-mavzu. O'rta Osiyodagi temuriylar davrigacha bo'lgan iqtisodiy g'oyalar (2-soat)**<br>**Reja:**<br>1. "Buyuk ipak yo'li"ning Markaziy Osiyoda iqtisodiy munosabatlar rivojlanishidagi o'rni.<br>2. Markaziy Osiyo donishmandlari asarlarida islom ta'limotidagi iqtisodiy g'oyalarning bayon etilishi.<br>3. Xalq og'zaki ijodidagi iqtisodiy qarashlar. |

4. Forobiy,Ibn Sino , Beruniy va Yusuf Xos Hojib asarlaridagi iqtisodiy g`oyalar mohiyati.

**4-mavzu. Amir Temur va temuriylar davridagi iqtisodiy g'oyalar va iqtisodiy siyosat (2-soat)**

**Reja:**

1. Amir Temur davridagi iqtisodiy g`oyalar.
2. ShohruxMirzo va Mirzo Ulug`bek davridagi iqtisodiy islohotlar.
3. Alisher Navoiy asarlarida iqtisodiy g`oyalarning mohiyati.
4. Bobur va boburiylar davridagi iqtisodiy g`oyalar.

**5-mavzu. Merkantilizm iqtisodiy ta'limotining mohiyati va ahamiyati. Angliya va Fransiyada klassik (mumtoz) maktabning shakllanishi (2-soat)**

**Reja:**

1. Merkantilizm vujudga kelishining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari. Merkantilizm iqtisodiy ta'limotining mohiyati.
2. Merkantilizm iqtisodiy ta'limotining tarixiy taqdiri. Merkantilizm va hozirgi zamon.
3. Klassik (mumtoz) iqtisodiy maktab paydo bo`lishining tarixiy shart-sharoitlari va uning xarakteristikasi.
4. V.Petti-Angliya klassik iqtisodiy maktabining asoschisi. Fransiyada klassik iqtisodiy maktabning vujudga kelishi.
5. P.Buagilberning iqtisodiy qarashlari.

**6-mavzu. Klassik iqtisodiy maktabning to'la shakllanishi. Adam Smit va David Rikardo iqtisodiy ta'limotlari (2-soat)**

**Reja:**

1. Klassik maktab g`oyalari shakllanishining tarixiy shart-sharoitlari. Klassik iqtisodiy maktabning to`la shakllanishi.
2. A.Smitning iqtisodiy g`oyalari. Uning "Xalqlar boyligi" asaridagi iqtisodiy qarashlar.
3. D.Rikardo, J.B.Sey va T.Maltus iqtisodiy ta'limotlari.
4. Jeyms Nill va J.Mak-Kulloxlarning iqtisodiy g`oyalari.

**7-mavzu. Klassik iqtisodiy maktabga muqobil g'oyalarning mohiyati. Germaniyadagi tarixiy maktab g'oyalarining o'ziga xos xususiyatlari (4-soat)**

**Reja:**

1. XIX asrning birinchi yarmida islohotchilik ilmiy konsepsiyalarning shakllanishi. S.Sismondning iqtisodiy qarashlari, uning mayda ishlab chiqarish nazariyasi.
2. P.J.Prudonning iqtisodiy konsepsiyasi. Prudonizm. K.Rodbertusning iqtisodiy g`oyalari.
3. Bozor iqtisodiyotiga muqobil (alternativ) g`oyalar.
4. Germaniya tarixiy maktablarining o`ziga xos xususiyatlari.
5. Marjinalizm ta'limoti va neoklassik iqtisodiy maktablar.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem. guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg`ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

## IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

**Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:**

- esse – dolzarb mavzu bo'yicha shaxsiy fikrini tanqid, publisistik va boshqa janrlarda yozma bayon qilish;
- dokladlartayyorlash;
- kurs ishi yozish;
- konspektyozish;
- glossariytuzish;



- individual va guruhiy o`quv loyihasi;
- keys-topshiriqlarini bajarish;
- mavzuli portfoliolar tuzish;
- axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash;
- manbaalar bilan ishlash;
- infografika tuzish;
- chizma-tasviriy modellar (intellekt-kart, freym, mantiqiy graf va h.k.) yaratish;
- multimediali taqdimotlar yaratish;
- darslarning metodik ishlanmalarini tayyorlash;
- darsdan tashqari mashg`ulotlar ishlanmalarini tayyorlash;

Ta`lim yo`nalishi(mutaxassislik)ning xususiyatidan kelib chiqqan holda mustaqil ishlarning boshqa turlaridan foydalanish mumkin.

**Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'limning mavzulari:**

1. Qadimgi Xitoydagi iqtisodiy g`oyalar.
2. Qadimgi Xindistondagi ijtimoiy-iqtisodiy g`oyalar.
3. Qadimgi Rimdagi iqtisodiy g`oyalar. Xristianlikning vujudga kelishi.
4. Qadimgi Gresiyadagi iqtisodiy g`oyalar.
5. Qur'on va Xadislarda berilgan ijtimoiy-iqtisodiy g`oyalar.
6. IX-XVI asrlarda O`rta Osiyodagi iqtisodiy g`oyalar,qarashlar.
7. Yusuf Xos Xojibning ilmiy meroslari.
8. Abu Rayxon Beruniyning ilmiy meroslari.
9. Temur va temuriylar davri iqtisodiy g`oyalari.
10. Navoiyning ilmiy meroslari.
11. Boburning ilmiy qarashlari.
12. Arab mamlakatlaridagi feodalizmning iqtisodiy g`oyalari: Ibn Xoldun qarashlari.
13. Yevropada merkantilizm va klassik iqtisodiy maktabning vujudga kelishi.
14. Fiziokratlar maktabi. F.Kenening iqtisodiy jadvali.
15. V.Petti Angliya klassik iqtisodiy ta`limotning dastlabki vakili.
16. A.Smit va D.Rikardoning klassik iqtisodiy maktabi.
17. Fransuz klassik maktabi. F.Buagelber va F.Kenelarning iqtisodiy nazariyalari.
18. S.Sismondining iqtisodiy qarashlari.
19. P.M.Prudonning iqtisodiy ta`limoti.
20. R.Maltusning axoli nufusi nazariyasi va zamonaviy maltus ta`limoti.
21. Amerikada iqtisodiy g`oyalarning vujudga kelishi (XVIII-XIX asr).
22. Germaniyada iqtisodiy konsepsiyalarning shakllanishi. F.Listning tarixiy maktabi va uning iqtisodiy qarashlari.
23. Marks iqtisodiy g`oyalari vujudga kelishining ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari, uning mohiyati, tarixiy taqdiri.
24. Germaniyada «Yangi tarixiy maktab» va uning iqtisodiy mazmuni.
25. Avstriya maktabi, uning nazariyalari va uslublarining shart-sharoitlari.
26. Kembrij maktabi. A.Marshallning ta`lab va taklif nazariyalari.
27. XIX asr oxiri -XX asr boshlaridagi neoklassik evolyutsion yo`nalish.
28. Ma`muriy-buyruqbozlik iqtisodiyotining asosiy tamoyillari.
29. Amerikacha institusionalizm. T.Veblen va J..Kommonslarning ta`limotlari.
30. Hozirgi zamon iqtisodiy ta`limotlarning asosiy yo`nalishlari.
31. Neoklassik maktab va neoliberalizmning evolyutsiyasi.
32. J.M.Keyns ta`limoti.

**3.** **VI. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

**Talaba bilish kerak:**

- Talaba turli davrlar va jamiyatlarda paydo bo'lgan iqtisodiy fikrlar va ta`limotlarning mamlakat rivojiga ta`siri to`g`risida bilishi va ***tasavvurga ega bo'lishi***, **(bilim)**

Fiziokratizm iqtisodiy ta'limotining vujudga kelishi (Fransiya). Uning umumiy xarakteristikasi. Fransua Kene asarida merkantilizmni tanqid. Fiziokratlarning iqtisodiy dasturi. «Tabiiy tartib» konsepsiyasi. «Sof mahsulot» nazariyasi. «Unumli va unumsiz mehnat» talqini. Kapital, sinflar, oddiy takror ishlab chiqarish haqidagi g'oyalar. Kenening bosh asari «Iqtisodiy jadval»da ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonining tahlil etilishi va uning ahamiyati. A. Tyurgo asarlarida fiziokratik tizimni rivojlantirilishi. Uning qiymat, kapital, ish haqi va sinflar to'g'risidagi g'oyalarining ahamiyati. Fiziokratizm iqtisodiy ta'limotining ahamiyati va tarixiy taqdiri.

**2-modul. Klassik iqtisodiy maktabning to'la shakllanishi**

**4 – navzu. Klassik iqtisodiy maktabning to'la shakllanishi. Adam Smit va David Rikardo iqtisodiy ta'limotlari. ( 2 soat)**

A.Smit asarlarida klassik maktab g'oyalarining yanada rivojlantirilishi. A.Smit manufaktura davrining iqtisodchisi sifatida. A.Smit «Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risidagi tadqiqot» nomli asari, feodalizmga munosabat.Merkantilizm tanqidi va fritrederlik (erkin savdo)ning asoslab berilishi. A.Smit va fiziokratlar. A.Smit uslubi (metodi). Uning mehnat taqsimoti, ayirboshlash va pul haqidagi ta'limotlari. A.Smitning qiymatningmehnat nazariyasini rivojlantirishga qo'shgan xissasi. Qiymatni talqin kilishdagi ziddiyatlar. Daromadlar nazariyasi, ish haqi, foyda, yer rentasining turli xil talqinlari. Foydaningishchilar mehnatidan chegaralanganligi haqidagi ta'limot. Ijtimoiy kapitalni takror ishlab chiqarish jarayonini tahlil kilishdagi ziddiyatlar (Smit dogmasi). Unumli va unumsiz mehnat talqini. Ilgor iqtisodiy dasturning asoslab berilishi. A.Smit va hozirgi zamon. Bozor iqtisodiyotito'g'risidagi ta'limotlar.

D.Rikardo-sanoatning fabrika davri mafkurachisi. Uning «Siyosiy iqtisod va soliq solishning boshlanishi» asaridagi asosiy iqtisodiy g'oyalar Rikardoning Smit g'oyalariga mutanosibligi va farqlari. Qiymatning yangicha talqini, sinflar daromadi o'rtasidagi qarama-qarshilik, erkin savdo-fritrederlik, jahon mehnat taqsimotining ilgari surilishi, ixtisoslashuv, nisbiy afzallik nazariyasi. A.Smit va D.Rikardo g'oyalarining boshqa olimlar tomonidan rivojlantirilishi.

**5 –mavzu. Klassik iqtisodiy maktabga muqobil g'oyalarning mohiyati( 2 soat)**

Muqobil iqtisodiy g'oyalar paydo bulishining tarixiy shart-sharoitlari va xarakteristikasi. . Maltus. Uning «Nufus nazariyasi», qiymat nazariyasi va foyda masalalarining klassik maktabga xos ziddiyatlaridan foydalanish. T.Maltusning realizasiya nazariyasi.

J.Mill (otasi) D. Mak-Kullox va boshqalarning asarlaridagi iqtisodiy g'oyalar. J.S.Mill (ugli)ning tadqiqot predmeti va ijtimoiy islohot dasturi.

F.Bastia (Fransiya), G.Keri (AQSh)ning konsepsiyalari. Xizmat ko'rsatish nazariyasi. N.Seniorning «tiyilish» va «so'nggi soat» nazariyalari.

J.B.Sey. Uning metodologiyasi, qiymatning tahlili, ishlab chiqarishning uch omili (kapital, er, mehnat) va kapitalning qiymati unumdorligi haqidagi uylar. «Sey qonuni», umumiy ortikcha ishlab chiqarish ehtimolining rad etilishi.

Mayda tovar ishlab chiqaruvchilar g'oyalarining mohiyati XVIII asr oxiri XIX asr boshlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol, mayda ishlab chiqarish imkoniyatlari, yollanma mehnat kengayishi nazariyalarning rivojlanishi. Sismondi, Prudon va Rodbertus qarashlaridagi umumiylik, xususiylik. Sismondining iqtisodiy qarashlari. Sismondi (1773-1842) mayda ishlab chiqarishga munosabat; mehnat, qiymat va pul, ijtimoiy fanning ikki qismi: oliy siyosat va siyosiy iqtisod. Sismondi uslubiyati. kapitalizmga munosabat, milliy daromad va kapital muammosi, uchinchi shaxslar nazariyasi. Prudon va Rodbertusning iqtisodiy g'oyalari. Prudon (1809-1865) kapitalizmni isloh kilish konsepsiyasi, qiymatning abadiy g'oyasi, belgilangan qiymat. Rodbertus (1805-1875)- qo'shimcha qiymat va taqsimot nazariyalari

Iqtisodiyotda matematik uslublar A.O.Kurno. «Talab qonuni», talabning elastikligi. I.G.Fon Tyunen. Iqtisodiy model. Optimallashtirish. Ekonometrikaga asos solinishi. Dastlabki



– Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.
2.Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr /Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 48 b.
3.Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o'tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so'zlagan nutqlari o'rin olgan. /Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.
4.Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Yangi O'zbekiston strategiyasi.-Toshkent, 2021. - 458 b.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI**

1.O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda)
2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 6 – noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim - tarbiya va ilm - fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida" gi PF - 6108 - son farmoni.

**AXBOROT MANBAALARI**

1. http://www.edu.uz–O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi sayti.
2. http:www.uzedu.uz – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi sayti.
3 .http://www.gov.uz– O'zbekiston Respublikasi xukumati portali.
4. www.pedagog.uz
5. www.apkpro.ru/content/view
6. www.prometeus.nsc.ru/contents/books/slasten
7. www.relarn.ru/conf/conf2007
8. http://vilenin.narod.ru/Mm/Books/
9. http://www.allmath.ru/
10. http://www.ziyonet.uz/
11. http://window.edu.ru/window/www.astronet.ru
12. www.mf.uz – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti.
13. www.norma.uz – Elektron huquqiy sayti.
14. www. stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi sayti.
15. www.mineconomu.uz – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi sayti.
16. www.mehnat.uz – O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi sayti.
17. www.ereport.ru - Obzornaya informasiya po mirovoy ekonomike.
18. www.stplan.ru - ekonomika i upravlenie.
19. www.catback.ru - nauchnie stati i uchebnie materiali po ekonomike.

| | |
|---|---|
| 7. | Iqtisodiy ta'limotlar tarixi fanining o'quv dasturi Jizzax davlat pedagogika universiteti Kengashining 202_ yil "___" ________dagi ____-sonli Kengash qarori bilan tasdiqlangan. |
| 8. | **Fan/modul uchun ma`sullar:**<br>Usmonov Azamat Juraboyevich - Maktab menejmenti kafedrasi katta o'qituvchisi |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>Botirov Baxtiyor Fayzullayevich- Maktab menejmenti kafedrasi dotsenti<br>Hidoyatov Ravshan- Jizzax politexnika instituti "Menejment va iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti |

| Fan/mavzu kodi IqTT104 | O'quv yili 2022-2023 | Semestr 2 | Kreditlar 2 | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Fan/mavzuturi Tanlov | Ta'lim tili O'zbek | | Haftadagi dars soatlari 2 | | |
| | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| 1. | Iqtisodiy ta'limotlar tarixi | Ma'ruza-12<br>Amaliy-14 | 20 | 30 | 60 |

2.

| | Hammasi | Jami auditoriya | Ma'ruza | Amaliy | Mustaqil ish |
|---|---|---|---|---|---|
| 1-semestr | 60 | 30 | 16 | 14 | 30 |
| Jami | 60 | 30 | 16 | 14 | 30 |

**Fanning mazmuni**

**Fanni o'qitishdan maqsad** –talabalar tafakkurida ayrim shaxslar, ijtimoiy guruhlar yoki umumjamiyat manfaatlarini ifodalovchi iqtisodiy fikr, qarash, g'oya, nazariya va ta'limotlarning shakllanishi, rivojlanishi, "yemirilishi" va almashinuvining tarixiy jarayonini izchil yoritish asosida milliy istiqlol mafkurasining mohiyati va mazmuniga mos, tub islohotlar milliy modelining yetuk amaliyotchisiga xos iqtisodiy dunyoqarashni shakllantirishdan iborat.

**Fanning vazifasi** – talabalarga iqtisodiy ta'limotlar tarixi bo'yicha nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalalar, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajarishdan iboratdir.

**II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II. I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**I – modul. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi mazmuni va mohiyati**

**1 -mavzu. «Iqtisodiy ta'limotlar tarixi» fanining predmeti va o'rganish usuli. Qadimgi dunyo iqtisodiy g'oyalari. Feodal jamiyati va uning emirilishi davridagi iqtisodiy qarashlar.( 2 soat)**

Iqtisodiy fikr, g'oya, qarash, ta'limotlarning paydo bulishi va rivojlanishining tarixiy jarayoni. Ilmiy davrlash prinsiplari (tamoyillari), boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar (falsafa, iqtisodiyot nazariyasi, xalq xo'jaligi tarixi, ekonomiks) bilan chambarchas bog'liqligi. Iqtisodiy fan tarixida maktablar va yo'nalishlar tushunchasi. Yangicha ijobiy fikrlash, umumiy iqtisodiy madaniyatni tarbiyalash, fan muammolari, dogmatik va zamonakashlik asosida yondashishning oldini olish, iqtisodiy g'oyalarni chuqur uzlashtirishda va talabalarni tarbiyalashda mana shu fanning ahamiyati. Qadimgi Sharq davlatlari iqtisodiy taraqqiyotining muammolari, xususiyatlari. Qadimgi Bobil davlatining g'oyalari. Qadimgi Misr. Misrning iqtisodiy g'oyalari.

Xammurapi qonunlari. Qadimgi Xindistonning iqtisodiy g'oyalari. Manu qonunlari. «Artxashastra» traktati. Qadimgi Xitoy iqtisodiy fikrlari. Konfusiychilar va legistlarning ta'limoti. Guan-szi traktatlari. Ilk sosial (ijtimoiy) utopiyalar. Zardushtizm (Avesta)dagi iqtisodiy g'oyalar.

Qadimgi Gresiya ilk quldorlik jamiyatining iqtisodiy qarashlari. Grek polisi (shahri) iqtisodiy g'oyalarining rivoji (miloddan avvalgi V asr). Ksenofont. Aflotun (Platon)ning iqtisodiy loyihalari. Aristotelning iqtisodiy qarashlari. Iqtisodiy jarayonlarni nazariy jihatdan tushuntirish yo'lidagi ilk urinishlar. Qadimgi Rimning iqtisodiy konsesiyalari. Katon, Varron, Kolumellaning agronomik asarlarida Rim latifundiyalari muammolari. Aka-uka Graxxlar agrar islohotining iqtisodiy asoslari. Kolonat ilg'orligining tan olinishi.